

**GANDIZM IDEALOGIYASINING IJTIMOIIY MOHIYATI**

*Ilmiy raxbar: **Patiyev X.I***

*Termiz davlat pedagogika instituti,
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi 303-guruh talabasi*

Xoliqova Shahlo

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy ta'limot hisoblangan Gandizm ideologiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *gandizm, ideologiya, siyosat, axloq, ozodlik, din.*

Kirish. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, qadimdan toki bugunga qadar hokimiyatni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, siyosiy madaniyatga ega aholi qatlamini shakllantirish yuzasidan turli davrlarda turli-xil qarashlar, fikrlar, ta'limotlar yuzaga kelgan. Hattoki ularning ayrimlari siyosiy ideologiya darajasiga ko'tarilib asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mana shunday siyosiy ta'limotlardan biri bu - Gandizm ideologiyasidir. Ushbu ideologiya M.K.Gandi tomonidan ishlab chiqilgan va hind milliy ozodlik mafkurasiga aylangan. Gandining ushbu falsafasi muamolarini hal etish vositasi sifatida har qanday urushlarni inkor etadi.

Gandi nomi bugungi kunda Hindistonda butun dunyoda tinchlik, ijtimoiy hamkorkik, dinlararo bag'rikenglikni tamaddun kelajagi haqida fikr bildirayotib, mashhur ingliz tarixchisi-sotsiologi A.Toynbi "Dunyoda bir kun kelib urushlar, qirg'inlar ham barham topadi, yer yuzi xalqlari orasidagi keskinliklar bir kun kelib ularni o'z ixtiyorlari bilan faqat bir yo'lni tanlashlariga majbur qiladi. Bu yo'l Gandi yo'li-tinchlik yo'lidir"- deya ta'kidlagan.



Bizga ma'lumki, Hindiston davlati bir necha asrlar Angliyaning mustamlakasi bo'lib kelgan. Bu jarayonda esa xalqning o'z milliyligini qadriyatlari, an'alarini saqlab qolish shuningdek, hind xalqini mustamlakachilarga qarshi kurashishga chorlovchi kuchli mafkuraga ehtiyoj tug'ilgandi. Gandi tashkil etgan harakat ya'ni Gandizm dunyoga zulmu istibdodga qarshi kuch ishlatmasdan ma'naviy omillarga suyanan holda kurashish va g'alaba qilish mumkinligini isbotlab bergan ideologiyalardan biri bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, Gandizm mohiyati ham boshqa tinchlikparvar g'oyalar singari ozodlik, tenglik mafkuralari bilan yo'g'rilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI: Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, Mahatma Gandi asarlari obyektiv ochib berildi. Tarixiylik, Mahatma Gandi yashagan davr tarix nuqatayinazaridan tahlil etildi. Mantiqiylik, Ibn Sino asarlari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Tizimlilik, M.K- Gandi, Non-violence in Peace and War, vol I, Ahmedabad, 1962, стр. IX., M.K- G a n d h i , Truth is God, Ahmedabad, 1957, стр. 10, Dharendra Mohan Datta "The Philosophy of Mahatma Gandhi" 1953, Pyarelal , Mahatma Gandhi. The Last Phase, vol. 1, Ahmedabad, 1956, M. K- Gandhi , All Men are Brothers, Paris, 1958, M.K- Gandhi, Truth is God, D.G.Tendulkar, Mahatma Volume 1-8: Life of Mohandas Karamchand Gandhi asarlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Gandining g'oyalari ingliz hukumatiga qarshi kuch ishlatmasdan qarshilik ko'rsatish, hind vatandoshlaridan inglizlar qo'lida ishlamaslik, ingliz maktablarida tahsil olmaslik, ingliz sudlarida qatnashmaslik kabi tamoyillarga amal qilishlarini targ'ib qiladi. Ayniqsa, Gandi ingliz yengil sanoati mahsulotlaridan voz kechishni va qo'l mehnatiga asoslangan ip yigiruv uskunasidan foydalangan holda kiyim-bosh tayyorlashni namuna qilib ko'rsatadi va bu Gandining o'ziga xos bo'lgan ramziga aylanadi. Aynan shu davrdan boshlab Gandi qiyofasi ham tarkidunyo qilgan odam siymosini g'aydalantira boshlaydi. Gandining ushbu g'oyasini hind xalqi katta ishtiyoq bilan qarshilaydi. Bu davrda mahalliy hind huquqshunoslar ommaviy tarzda ingliz sudlarida iste'fo berar ingliz maktablari va kollejlari hind talabalarisiz huvillar, odamlar qo'lida to'qilgan matolardan kiyim-bosh tayyorlab yurishni boshlashadi. Bu hindlarning inglizlarga bergan katta zarbasi bo'ladi. Gandining o'z



siyosiy g'oyalarda hind milliy dini so'z va atamalaridan keng foydalanishining ham badali bor edi. Gandining ushbu asari Gandizmning ijtimoiy mohiyatini yoritib bergan muhim asarlaridan biridir.

Gandi o'z ta'limotini xalq orasida targ'ib etgan va kishilarda yuksak ma'naviy tafakkurni shakllantirishga intilgan edi. Uning oddiy sodda va barcha birdek tushunadigan va biladigan amal qilish qiyin bo'lmagan tushuncha va harakatlardan iborat edi. U qarshilik ko'rsatishning ikki yo'nalishini talab qilgan-hamkorlik qilmaslik davlat (davlat xizmatidan bosh tortish, mustamlakachilarning "vakillik organlari" ga saylov va davlat maktablarini boykot qilish ,rasmiy sud muasassalarini xususiy hakamlik bilan almashtirish kabilarni ilgari suradi.

Gandichilik bu - Hindistonning mustaqilligi uchun kurashning usullari, shakllari va vositalarini ham o'zida mujassam etgan ideologiya sifatida baholanadi. Mazkur ta'limot ijtimoiy ongning uchta shakli: din, falsafa va axloqning o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadi. Gandi dunyoqarashda axloqning eng muhim maqsadi, bir tomondan, ma'lum bir jamoat maqsadlariga birinchi navbatda Svarajga (vatan ozodligi) erishish uchun kurashda ommani birlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilish, ikkinchi tomondan bu kurashda shaxsiy manfaatlarni himoya qilish emas, balkim xalq manfaatini himoya qilish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Gandi shaxsning ham axloqiy xarakterini, ham ijtimoiy munosabatlarning butun majmuasini o'zgartirishning yagona haqiqiy usulini ko'rdi.

Gandining barcha maqolalari nutqlari va suhbatlarida Xudo haqida, haqiqat, sevgi, kuch ishlatmaslik, milliy ozodlik, qo'rqmaslik, milliy boshqaruv, xotirjamlik va hokazolar haqida so'z boradi. Hindistonda uning ta'siri va g'oyalari keng tarqalishi ham shu bilan bog'lanib ketgan.

Gandi sof faylasuf bo'lmaganligi, hech qanday mustaqil to'liq falsafiy tizimda yaratmaganligini va o'zi ham hech qachon bunday qilmaganligini ta'kidlagan" Men biron-bir yangi ta'limotlar va asos yaratishga da'vo qilmayman. Haqiqat va kuch ishlatmaslik -shunday qadimiyki, xuddi tog'larday", deydi. U " abadiy haqiqatni " kundalik hayotda hind xalqini bezovta qilayotgan dolzarb muamollarda, oxir-oqibat,



eng asosiysi ozodlik va mustaqillik uchun kurashda deb biladi. Gandi uchun asosi inson axloqi asosida qurilgan.

Xulosa. Yuqorida e'tirof etilgan barcha fikrlardan nazariy qarashlaridan ko'rinib turibdiki, Gandizm ta'limoti dunyo e'tirof etgan demokratik ruh ustuvor bo'lgan ideologiya deyishimiz mumkin. Gandizm ta'limoti zo'ravon mafkuralarga, ayrim mustamlakachi davlatlarning o'zga mazlum xalqlarni arosatga solish, huquq va erkinliklaridan mahrum etilishiga qarshi kurashda eng muhim omil bo'lgan va dunyo davlatlari siyosatini, siyosiy muhitini tubdan o'zgartirilishiga imkon bergan siyosiy fikrning yuqori nuqtasiga erishgan ideologiya hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.K- Gandhi, Non-violence in Peace and War, vol I, Ahmedabad, 1962, стр. IX.
2. M.K- G a n d h i , Truth is God, Ahmedabad, 1957, стр. 10.
3. Dharendra Mohan Datta "The Philosophy of Mahatma Gandhi" 1959, стр. 32—33.
4. P y a r e l a l , Mahatma Gandhi. The Last Phase, vol. 1, Ahmedabad, 1956, стр. 599.
5. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
6. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
7. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G 'OYALARI TARG 'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.



8. PATIYEV, X. (2024). JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 166-168.
9. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOYIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.
10. Хамраев, С. III. (2022). O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI INTEGRATIONSALASH ZARURATI. *Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки*, 2(12), 524-528.
11. Xamrayev, S. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNI ASOSIY JIHATLARI. *Solution of Social Problems in Management and Economy*, 3(3), 23–27.
12. Внедрение современных технологий в развитие сектора экотуризма. (2024). *Periodica Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук*, 28, 7-10.
13. Rakimkulovich, R. F. (2024). PROBLEMS ENSURING NATIONAL SECURITY IN THE FIELD OF INFORMATION AND PROTECTING AGAINST THREATS ON THE INTERNET. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 3(6), 119-121.
14. Rahimkulovich, R. F. (2024). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF THE SENSE OF NATIONAL IDENTITY. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 4(2), 1-6.
15. Farxod Raximkulovich Raxmankulov (2024). VATANARVAR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. *Academic research in educational sciences*, 5NUU Conference (2), 536-543.